



## BOJXONA TO'LOVLARIDAN BERILADIGAN IMTIYOZLAR HISOBINI YURITISHDA RAQAMLASHTIRISHNING O'RNI

*Sarmanov Orifjon Adiljonovich,*  
*Bojxona instituti dotsenti v.b., i.f.f.d. (PhD),*  
*e-mail: [sarmanovorifjon@gmail.com](mailto:sarmanovorifjon@gmail.com)*

*Mardiyev Muslimbek Ahmad o'g'li,*  
*Bojxona instituti 4-kurs kursanti,*  
*e-mail: [muslimbekmardiyev713@gmail.com](mailto:muslimbekmardiyev713@gmail.com)*

*Raxmatullayeva Bahora Mirjaxon qizi,*  
*Bojxona instituti 4-kurs kursanti,*  
*Maxkamboyeva Madinabonu Abduraxman qizi,*  
*Bojxona instituti 4-kurs kursanti,*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida bojxona to'lovlaridan berilayotgan imtiyozlarning mazmun-mohiyati va ularning milliy iqtisodiyotni rivojlantirishdagi o'rni ochib berilgan. Shuningdek, bojxona organlarida bojxona to'lovlaridan berilayotgan imtiyozlar tahlil qilinib, raqamlashtirish asosida ularning hisobini yuritish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar berildi.

**Kalit so'zlar:** Bojxona to'lovlari, tashqi iqtisodiy faoliyat, import bojxona boji, qo'shilgan qiymat solig'i va aksiz solig'i, imtiyozlar, ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, tarif imtiyozlari va preferensiyalari, imtiyozlarni nazorat qilish.

Har bir davlat o'z iqtisodiyotini har tomonlama rivojlantirish, dunyo xo'jaligiga integratsiyalashuv jarayonlarini hisobga olib, tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solishda turli xil vositalardan foydalanadi va ularni qo'llashni doimiy ravishda takomillashtirib boradi. Tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solish davlat vositalari tarkibida bojxona to'lovlari asosiy o'rinni egallaydi.

Tarif imtiyozlari va tarif preferensiyalari tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solish vositalari sifatida namoyon bo'lib, dastlab, "tarif preferensiyalari" va "tarif imtiyozlari" bir xil ma'no kashf etar edi. Ammo, xalqaro savdo jarayonlari rivojlanishi natijasida bu ikki tushuncha tashqi savdo siyosatida turli xil ma'no-mazmun kasb eta boshladi.

Bojxona nuqtai nazaridan ushbu "tarif imtiyozi" va "tarif preferensiyasi" tushunchalarini bir-biridan farqlash zarur. Xalqaro savdodagi tarif preferensiyalari deganda bojxona chegarasi orqali olib o'tiladigan tovarlarning kelib chiqishi mamlakatiga qarab qo'llaniladigan hamda barcha tovarlar yoki ularning alohida turlariga nisbatan belgilanadigan import va eksport bojxona to'lovlarini to'lash bo'yicha imtiyozlar tushuniladi.


Bojxona tarif imtiyozlari bojxona huquqi institutlaridan biri va bojxona imtiyozlari murakkab tizimining bir qismidir. Imtiyoz tushunchasi slavyanacha "lga", "legota" so'zlaridan kelib chiqqan bo'lib, "uning ostida bir tomondan, yengillik, qulaylik" va boshqa tomondan – "maxsus huquqlarga ega bo'lish, boshqalar ustidan hukmronlik qilish" degan ma'noni anglatadi<sup>1</sup>.

Mamlakatimizda bu borada keng ko'lamli tizimli islohotlar amalga oshirilib kelinmoqda, xususan, bojxona taomillari soddalashtirilib, amaldagi tartiblar yengillashtirilishi bilan birga, tadbirkorlik subyektlariga bojxona to'lovlaridan turli imtiyozlar berilib, soha yo'nalishida qo'shimcha imkoniyatlar yaratilmoqda.

<sup>1</sup> [Savchenko](#) A.G, [Lavrikova](#) N.YU "Davlat tashqi iqtisodiy faoliyatini tartibga solish tizimida bojxona imtiyozlari" [https://www.elibrary.ru/download/elibrary\\_43100616\\_55531136.pdf](https://www.elibrary.ru/download/elibrary_43100616_55531136.pdf)




Zamonaviy sharoitda tashqi savdo rivojlanishning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Mamlakatimizda import o‘rinini bosuvchi, eksportbop tayyor raqobatbardosh tovarlar ishlab chiqaruvchi korxonalarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, iqtisodiyotni modernizatsiyalash, texnik va texnologik jihozlashni rag‘batlantirish, investitsion muhitni shakllantirish maqsadida hukumatimiz tomonidan qabul qilinayotgan qonunlar va me‘yoriy hujjatlar asosida tashqi iqtisodiy faoliyat qatnashchilariga bojxona to‘lovlaridan imtiyozlar berilmoqda.



1-rasm. Bojxona to‘lovlaridan imtiyoz berish maqsadlari sxemasi.

Bojxona organlari tomonidan 2019-2023-yillarda hisoblangan bojxona to‘lovlari tahlil qilinganida, tadbirkorlik subyektlariga bojxona to‘lovlaridan berilgan imtiyozlar jami hisoblangan bojxona to‘lovlari tarkibida 2019-yilda 77,7 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2023-yillarda bu ko‘rsatkich 49,6 foizni tashkil etdi



(2-rasm).



*2-rasm. 2019-2023-yillarda undirilgan bojxona to'lovlari va imtiyozlar<sup>2</sup> (trln so'mda)*

Agarda biz bojxona to'lovlari turlari bo'yicha berilayotgan imtiyozlarni tahlil qiladigan bo'lsak, 2022-2023-yillarda berilgan imtiyozlarning to'lov turlari kesimida tahlil qilinganida import bojxona bojidagi berilgan imtiyozlar 2022-yilda jami imtiyozlar tarkibida 40 foiz (22,3 trln so'm)dan 2023-yilda 60 foiz (34,7 trln so'm)ga yetib, import bojidagi berilgan imtiyozlar oxirgi bir yilda 56 foizga oshgan.

Bu kabi tahliliy ma'lumotlar asosida shuni ko'rishimiz mumkinki, bojxona to'lovlari berilayotgan imtiyozlar tashqi savdoga ko'makchi vazifasini bajarmoqda, tovarlar oqimini keskin oshishiga olib kelinmoqda. Bunga qo'shimcha tarzda shuni ta'kidlash joizki, bojxona to'lovlari berilgan imtiyozlar qo'llash bilan bog'liq hujjatlarning ko'pligi bojxona rasmiylashtiruv vaqtida imtiyozlarni qo'llashda murakkabliklar keltirib chiqaradi.

Hozirgi kunda bunday imkoniyatlardan to'g'ri foydalanishni o'rniga, nohalol tashqi faoliyat ishtirokchilari ham afsuski uchramoqda. Misol uchun, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi hududiga import qilishda bojxona boji va qo'shilgan qiymat solig'idan ozod etiladigan o'xshashi respublikada ishlab chiqarilmaydigan yangi texnologik asbob-uskunalar ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida"gi 352-sonli Qaroriga 2023-yilning 25-oktyabrida kiritilgan o'zgartirishga ko'ra "Import bojxona boji va qo'shilgan qiymat solig'ini to'lash bo'yicha imtiyozlar, ushbu Ro'yxatga TIF TN kodi va nomlari kiritilgan yangi texnologik uskunalar qo'llaniladi hamda bitta kontraktga (shartnomaga) muvofiq yangi texnologik asbob-uskunalar bilan birgalikda yetkazib berish sharti bilan va ushbu asbob-uskunaning ajralmas qismi hisoblangan butlovchi buyumlar va ehtiyot qismlarga tatbiq qilinadi" deb ko'rsatilgan.

O'rganish davomida TIF TN kodi 870590 bo'lgan "Yuklar va maxsus maqsadlarga belgilangan yuklarni tashish uchun motorli transport vositalari" tovarlari Qaror ilovasida nomi ko'rsatilmagan bo'lishiga qaramasdan bojxona to'lovlari berilgan imtiyozlar noto'g'ri qo'llanilganligi natijasida qo'shimcha bojxona to'lovlari hisoblangan.

Bojxona to'lovlari berilgan imtiyozlarning noto'g'ri qo'llanilishi bo'yicha aniqlangan qo'shimcha bojxona to'lovlari hisoblanishi bilan bog'liq xatoliklarni tahlil qilgan holda, kelgusida bu kabi xatoliklarni o'z vaqtida aniqlash va ularni oldini olish maqsadida qo'shimcha hisoblangan bojxona to'lovlari kelib chiqish sabablarini ko'rib chiqamiz.

Mazkur yo'nalishda aniqlangan holatlarning kelib chiqish sabablarini quyidagilarga ajratishimiz mumkin:

1. Muddati tugagan hujjatlar asosida imtiyoz qo'llash;
2. Imtiyoz nazarda tutilgan hujjatdagi tovarlar turi, TIF TN kodi va nomiga mos kelmaslik;
3. Imtiyoz nazarda tutilgan hujjatning izoh qismida berilgan alohida shartlar (ayrim tovarlarga qisqaroq muddatlar, tovar ishlab chiqarilgan yili va boshqa talablar)ga e'tibor bermaslik;
4. Hujjatda keltirilgan faoliyat yo'nalishi (turi)ga mos kelmaslik;
5. Hujjatda keltirilgan korxonalar ro'yxatiga mos kelmaslik;
6. Imtiyoz nazarda tutilgan hujjatda belgilangan kvotadan ortiq miqdorga imtiyoz qo'llash;
7. "Dastlabki, davriy va to'liq bo'lmagan bojxona yuk deklaratsiyasi" bilan berilgan imtiyoz Erkin muomalaga chiqarish deklaratsiyasiga mos kelmaganligi;
8. Import xom ashyodan tayyorlangan mahsulotni belgilangan korxonaga yetkazib bermaslik (ichki bozor yoki eksportga realizatsiya qilish);
9. Import xom ashyo mahsulotini belgilangan (mebel, elektr sanoati, maktab buyumlari ishlab chiqarish) faoliyat turiga mos foydalanilmaslik;

<sup>2</sup> Bojxona qo'mitasi ma'lumotlari asosida mualliflar ishlanmasi



Bu kabi holatlarning oldini olish uchun bojxona imtiyozlarini nazorat qilinishini kuchaytirish, inson omilini kamaytirish va nazoratni raqamlashtirish orqali amalga oshirish ijobiy natija beradi.

Bugungi kunda bojxona to'lovlaridan ozod qilish bo'yicha imtiyozlar qo'llanilishini Bojxona qo'mitasi, Yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimi (keyingi matnlarda — YAAAT) asosida nazorat qilish va hisobini yuritish bo'yicha vaqtinchalik Yo'riqnoma O'zbekiston Respublikasi Bojxona va Soliq Kodekslari, "Davlat bojxona xizmati to'g'risida"gi Qonuni, hamda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2016-yil 6-aprelda 2773-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan "Bojxona yuk deklaratsiyasini to'ldirish tartibi to'g'risida" Yo'riqnoma talablari asosida ishlab chiqilgan.

Mazkur vaqtinchalik Yo'riqnoma bojxona organlari tomonidan tovarlarning bojxona rasmiylashtiruvida imtiyoz qo'llanilishini, imtiyozlarni qonuniyligini va hisobini yuritishni YAAAT orqali nazorat qilish va monitoringini olib borishning huquqiy asosi bo'lib hisoblanadi.

Ushbu vaqtinchalik Yo'riqnoma imtiyoz qo'llanilishi belgilangan O'zbekiston Respublikasining Xalqaro kelishuvlari va me'yoriy-huquqiy hujjatlarini bojxona qo'mitasi miqyosida bir xilda talqin qilish, ularni noto'g'ri qo'llanilishini oldini olish hisobiga bojxona to'lovlarini davlat byudjetiga o'z vaqtida undirilishini ta'minlash, bojxona yuk deklaratsiyasining (keyingi matnlarda BYUD) imtiyoz qo'llanilganda to'ldiriladigan grafalarini to'g'ri rasmiylashtirish maqsadida ishlab chiqilgan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 3-avgustdagi "Berilgan bojxona imtiyozlaridan maqsadli foydalanilishini kameral nazorat qilish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi va Davlat bojxona qo'mitasining o'zaro hamkorligi mexanizmi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" 617-son qarori tasdiqlandi. Unga ko'ra kameral nazorat soliq to'lovchi tomonidan belgilangan tartibda berilgan moliyaviy va soliq hisobotlari, bojxona yuk deklaratsiyalari, shuningdek, soliq to'lovchining faoliyati to'g'risida davlat soliq xizmati organida mavjud bo'lgan boshqa hujjatlarni o'rganish va tahlil qilish asosida Davlat soliq qo'mitasi tomonidan amalga oshirilishishi belgilandi.

Quyidagilar Davlat soliq qo'mitasi va Bojxona qo'mitasi o'rtasida axborot almashish predmeti hisoblanadi:

- O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi orqali o'tadigan tovarlar to'g'risidagi ma'lumotlar;

- bojxona haqidagi qonun hujjatlariga muvofiq taqdim qilinishi nazarda tutilgan bojxona yuk deklaratsiyalari, tovarlar to'g'risidagi hujjatlar va ma'lumotlar;

- O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi orqali tovarlarni olib kirayotgan soliq to'lovchilar to'g'risidagi ma'lumotlar.

Mazkur qaror bilan tasdiqlangan Nizomda berilgan bojxona imtiyozlaridan maqsadli foydalanilishini kameral nazorat qilish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi va Davlat bojxona qo'mitasining o'zaro hamkorligi sxemasi hamda Davlat bojxona qo'mitasi tomonidan bojxona imtiyozlari berilgan soliq to'lovchilar to'g'risidagi ma'lumotlarning Davlat soliq qo'mitasiga onlayn rejimda taqdim qilish shakli keltirilgan.

Bojxona to'lovlaridan imtiyozlar deklarant tomonidan BYUDda hisoblanadi. "Bojxona yuk deklaratsiyalarini to'ldirish tartibi to'g'risida"gi Yo'riqnomaga asosan imtiyoz qo'llashga asos bo'lgan hujjatlar BYUDning 44-grafasining

6-bandida qayd etiladi.

Har bir bojxona to'lovlari turi bo'yicha imtiyozlarni to'g'ri qo'llash, imtiyozlar hisobini aniq va to'g'ri yuritilishini ta'minlash maqsadida bojxona rasmiylashtiruviga taqdim qilingan BYUDning 47-grafasi quyidagi tartibda to'ldiriladi:

1. Bojxona to'lovlari BYUDning 31 va 33-grafalarida ko'rsatilgan har bir tovarga mos ravishda 47-grafada to'lov turi bo'yicha alohida hisoblanadi. Bojxona rasmiylashtiruvi uchun yig'im faqat bir marotaba umumiy miqdorda hisoblanadi.



2. Bojxona bojidan yoki aksiz solig'idan imtiyoz qo'llanilganda ulardan hosil bulayotgan QQSdan imtiyoz ham BYUD 47-grafasida hisoblanadi.

3. Bojxona to'lovlarini to'lashdan ozod qilish bo'yicha imtiyoz qo'llanilganda BYUDning 47-grafasi "TU" ustunidagi "OO" yozuvi qayd etiladi.

BYUDning 47-grafasi "TU" ustunidagi "OO" yozuvi qayd etilgan taqdirda, mazkur to'lov turi bo'yicha avtomatik tarzda BYUDning 44-grafasi 6-bandida ham to'lov turi va imtiyoz qo'llashga asos bo'lgan hujjat ma'lumoti qayd etilishi lozim.

Bojxona organi xodimi sifatida bojxona to'lovlari bo'yicha imtiyozlarni nazorat qilish bojxona to'lovlari va soliqlarning to'g'ri va samarali undirilishini ta'minlash, shu bilan birga savdoni osonlashtirish va bojxona qoidalariga rioya qilishni nazarda tutadi. Bojxona to'lovlardan imtiyozlarning samaradorligini nazorat qilish uchun quyidagi vazifalarni bajarishi maqsadga muvofiq:

Elektron to'lov tizimlaridan foydalanish. To'lovlardan imtiyozlar berish jarayonlarini soddalashtirish va xato yoki nomuvofiqlik xavfini kamaytirish uchun bojxona axborot tizimlari imkoniyatlarini kengaytirish (mantiqiy nazorat tizimi) nazarda tutadi. Bu orqali imtiyozlar berish jarayonlarini to'laqonli kuzatish va monitoring qilish imkoniyatlarini taqdim etishi mumkin.

Imtiyozlar muvofiqligini nazorat qilish. Amaldagi qoidalar va tarif tasniflariga muvofiqligini ta'minlash uchun bojxona to'lovlardan berilayotgan imtiyozlarni muntazam ravishda kuzatib borilishi, imtiyozlarning to'g'riligini tekshirish va to'lashdan bo'yin tovlash xavfini baholash uchun audit usullari qo'llash lozim.

Xavf tahlilini o'tkazish. Yuqori xavfga ega bo'lgan yuklarni yoki importchilar yoki eksportchilarni aniqlash uchun xavf tahlili usullaridan foydalanish, bu esa mos kelmaslik yoki daromadni yo'qotish xavfini tug'dirishi mumkin. Maqsadli tekshiruvlar va bojxona auditi o'tkazish uchun resurslarni mos ravishda taqsimlash lozim.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil
2. 4-iyundagi "O'zbekiston Respublikasi hududiga import qilishda bojxona boji va qo'shilgan qiymat solig'idan ozod etiladigan o'xshashi respublikada ishlab chiqarilmaydigan yangi texnologik asbob-uskunalar ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida"gi 352-son qarori. <https://lex.uz/ru/docs/-5445273>
3. Savchenko A.G, Lavrikova N.YU "Davlat tashqi iqtisodiy faoliyatini tartibga solish tizimida bojxona imtiyozlari" [https://www.elibrary.ru/download/elibrary\\_43100616\\_55531136.pdf](https://www.elibrary.ru/download/elibrary_43100616_55531136.pdf).
4. K.A. Tarankova "Rossiyaga import qilinadigan imtiyozli tovarlarni nazorat qilish mexanizmlari"
5. O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligidan 2016-yil 6-aprelda ro'yxatdan o'tgan "Bojxona yuk deklaratsiyasini to'ldirish tartibi to'g'risidagi yo'riqnomani tasdiqlash haqida"gi 2773-sonli yo'riqnomasi. <https://lex.uz/docs/-2924955>
6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 3-avgustdagi "Berilgan bojxona imtiyozlaridan maqsadli foydalanilishini kameral nazorat qilish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi va Davlat bojxona qo'mitasining o'zaro hamkorligi mexanizmi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" 617-son qarori. <https://lex.uz/uz/docs/-3851085>
7. S.Gulyamov, Z.Makkamov, T.Pardayev, "Qo'shimcha hisoblangan bojxona to'lovlarning kelib chiqish sabablari va ularni oldini olish choralari", uslubiy qo'llanma. T.: OHBI, 2016-y.
8. Nosirovich, T. P., Rixsibayevich, A. S., & Adiljonovich, S. O. (2021). Prospects for increasing the effectiveness of the application of privileges and preferences from customs duties. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(7), 69-76.
9. SARMANOV, O. A., & FARXODOV, F. F. BOJXONA YIG'IMLARINI HISOBLASH VA UNDIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH Tulkin Nasirovich PARDAYEV.



10. Pardayev, T., Sarmanov, O., & Kamalov, S. (2022). GLOBALASHUV SHAROITIDA MILLIY BOJ TARIFI TIZIMINI XALQARO TALABLARGA UNIFIKATSIYALASH. *Economics and Innovative Technologies*, 10(6), 425-433.

11. Adiljonovich, S. O. (2025). O‘ZBEKISTONDA BOJXONA TO‘LOVLARI TUSHUMINING SAMARADORLIGIGA TA’SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI. *Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting*, 5(03), 249-256.